OLTINSOY TUMANIGA TABIIY GEOGRAFIK TAVSIF

Boboraxmatov Ma'ruf Ergashovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi Uzbekistan Milliy Universiteti 1-kurs magistranti

Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqola, Oltinsoy tumaniga tabiiy geografik tavsifi haqida bo'lib umimiy tushunchalar va qiziqarli faktlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Folklor ansambli, bolalar poliklinikalari, serunum tekislik, tarixiy joylar, sug'oriladigan yerlar.

Kirish: Oltinsoy tumani, Surxondaryo viloyatidagi tuman. 1981-yil 23-noyabrda Sho'rchi va Denov tumani qismlaridan tuzilgan. Viloyatning Denov, Boysun, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,56 ming km². Aholisi 116,9 ming kishi (2003). Tumanda 9 qishloq fuqarolar yig'ini (Vaxshivor, Dug'oba, Mirshodi, Oltinsoy, Oqarbuloq, Oqoltin, Xo'jasoat, Chep, Qarluq) bor. Tuman markazi — Qarluq qishlog'i.

Tabiati. Oltinsoy tumani Surxondaryoning shimoliy qismidagi serunum tekislikda joylashgan. Yer yuzasi sharqqa tomon pa-sayib boradi. G'arbiy chekkalari Kera-gotog' etagiga tutashib ketadi. Tuman markazidan Oltinsoy daryosi, shim.dan jan.ga tomon Hazarbog' kanali oqib o'tadi. Relyefi, asosan, tekislik va adirlardan iborat. Balandligi 400–700 m.

Iqlimi quruq, tipik subtropik iklim. Yillik o'rtacha temperatura 15,9°. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 2,6°. Eng past temperatura —25°. Iyulning o'rtacha temperaturasi 32—33°. eng yuqori temperatura 46°. Yillik yog'in 240– 260 mm. Vegetatsiya davri 230 kun, Ba'zan kuchli shamollar esadi. Tuproklari o'tloqi-botqoq, bo'z tuproklar. Yov-voyi o'simliklardan shuvoq, sho'ra, yantoq, bodom, pista, tog' rayhoni, do'lana, rovoch, alqar va boshqa o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan bo'ri, tulki, jayran, kalamush, qo'shoyoq, yumronqoziq, ko'rsichqon, jayra, to'qaylarda to'qay

mushugi, qobon, chiyabo‘ri, qushlardan mayna, so‘fito‘rg‘ay, kaklik, qaldirg‘och, ko‘rshapalak, g‘oz, o‘rdak, sudraluvchilardan o‘qilon, gekkon, ko‘zoynakli ilon va boshqa bor.Aholisi, asosan, o‘zbeklar, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km² ga 209 kishi. Xo‘jaligi. Tuman xo‘jaligi asosan qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan. Sanoat, transport, aloqa korxonalari bor. Qishloq xo‘jaligida bog‘dorchilik asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, tokchilik rivojlangan. Paxta, don ekinlari, sabzavot, poliz ekinlari ham ekiladi. Sanoat korxo-nalaridan Oltinsoy "Sharob" samarali ishlamoqda. "Sharob" korxona-si 1982-yilda Denov vino-araq zavodi tarkibidan ajralib chiqqan. Bir yilda 800 ming dekolitr vino ishlab chkkdriladi. "Portveyn", "Jasorat", "Muskat", "Kagor" naveshri mashhur. Oltinsoy tumanida 2 qo‘shma korxona, 5 yirik sanoat .korxonasi, 172 kichik va xususiy korxona bor.2003-yilda qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlar 12,4 ming ga, shu jumladan, 4,1 ming ga yerga paxta, 4,2 ming ga yerga don ekinlari, 578 ga yerga sabzavot, 90 ga yerga poliz ekinlari ekiladi, 852 ga bog‘lar, 5,5 ming ga tokzorlar bilan band. Oltinsoy tumanida 16 shirkat xo‘jaligi, 120 fermer xo‘jaligi bor.Tuman jamoa va shaxeiy xo‘jaliklarida 33490 krramol, 49800 qo‘y va echki, 895 ot, 50900 parranda boqiladi.Tumanda 61 umumiy ta’lim maktabi (34770 o‘quvchi), 4 kollej (1700 talaba), litsey-internat, musika maktablari bor. "Yoriltosh" havaskor qo‘g‘ir-choq teatri, "Alpomish" shirkat xo‘jaligidagi folklor ansambli madaniy xizmat ko‘rsatadi. Markaziy kasalxona, kattalar va bolalar poliklinikalari, ishlab turibdi. Stadion, 7 sport zali, futbol, voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi maydonlari mavjud 1986-yildan "Oltin-soy tongi" tuman gazetasi chiqariladi (adadi 900).[1]

Oltinsoy tumani Surxondaryo viloyati xududida 1981-yil 23-noyabrda Sho‘rchi va Denov tumanlari asosida tuzilgan. Umumiy yer maydini 563,74 kv. km. Aholisi 105,2 ming kishi (1996). Tuman markazi - qarluq aholi punkti, Termizdan 140 km shimoliy-sharqda joylashgan. Yaqin temir yo‘li bekatigacha (Sho‘rchi razezdi) 23 km. Tumanda 9 qishloq fuqarolar yig‘ini (Vaxshivor, Dug‘oba, Mirshodi, Oltinsoy, Oqar buloq, Oq oltin, Xo‘jasoat, CHAP, Qarluq), 56 ta maxalla bor. Oltinsoy Surxondaryoning shimoliy qismida serunum tekislikda joylashgan. Yer yuzasi sharqqa

tomon pasayib boradi. G‘arbiy chegaralari "Keragatog‘" etagiga tutashib ketadi. Tuman markazidan Oltinsoy daryosi, shimoldan janubga qarab «Xazarbog‘» kanali oqib o‘tadi.

Tumanda 16 ta jamoa xo‘jaligi bor. Qishloq xo‘jaligida bog‘dorchilik asosiy o‘rin tutadi. Ayniqsa, uzumchilik rivojlangan. Bundan tashqari paxta, don ekinlar, sabzavot, poliz ekinlari xam ekiladi. Yaylovlarida qoramol, qo‘y, echki boqiladi. Bobur nomidagi «, Oltinsoy», Ulug‘bek nomidagi «, Sayrak» jamoa xo‘jaliklari uzum hosili, shuningdek don mahsulotlari yetishtirishda viloyatda yetakchi xo‘jaliklardan. Paxta yetishtirishda «Paxtakor», «Xo‘jaypok», «Oqoltin» jamoa xo‘jaliklari ilg‘or. Oltinsoyda bir qancha tarixiy joylar Bor. Bulardan eng yiriklari: Degreztepa, Munchoqtepa, Qiziltepa, Qoratepa, Tarag‘ytepa, Jiyanbobo va boshqalar.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ваҳобов Ҳ., Зайнутдинов А. География ўқитиш методикаси. 1-қисм Маърузалар матни. -Т.: Университет, 2000.
2. Методика обучения географии в средней школе. Под. ред. Л.М.Панчешниковой. -М.: Просвещение, 1983.
3. Қурбонниёзов Р. География таълими методикаси. -Т.: Университет, 1992.
4. Қурбонниёзов Р. География таълими методикаси. -Урганч, 2002.
5. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Холиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. Т.: ТДПУ, 2013.